

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

## ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

### REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



**Crossref**  
Content  
Registration

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR  
TARIXI

- 6 **KARAXODJAEVA DILOROM  
MAMIROVNA**  
А.И. Ишанов – выдающийся узбекский  
ученый-государствовед

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 13 **TULTEEV IL'YAS TABASOVICH**  
Конституционализм и наука конституционного  
права: некоторые задачи и перспективы  
развития
- 24 **YULDOSHBKOV AVAZBEK  
ALISHER O'G'LI**  
**QODIROVA DILDORA IRKINOVNA**  
Xorijiy investitsiya tushunchasining  
nazariy-huquqiy jihatlar

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 30 **XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH**  
Intellectual mulk huquqini boshqarish va  
texnologiyalar transferini davlat tomonidan  
qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy  
masalalari
- 38 **XO'JAYEV SHOXJAXON AKMALJON O'G'LI**  
Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya  
qilishning o'ziga xos jihatlar
- 49 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA  
XODJIAKBAROVNA**  
Xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni  
tartibga solishning o'ziga xos jihatlar va  
oilaviy-huquqiy shartnomalar

61 **МУРОДЖОНОВА МОХИРАХОН  
МАКСУДЖОН КИЗИ**

**ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА**

Понятие международного договора  
строительного подряда

70 **USMONOVA MUNISXON YO‘LDOSH QIZI**

Muomala layoqatidagi nuqsonlar va uni  
aniqlashdagi muammolar

81 **ASADOV SHAHRIDDIN FAKHRIDDIN UGLI**

Legal regulation of consulting services

12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI.

AGRAR HUQUQ.

EKOLOGIK HUQUQ

90 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**

O‘zbekistonda vodorod energetikasi sohasi  
qonunchiligini takomillashtirishning ayrim  
masalalari

97 **ХАЙИТОВ ПАНЖИ БУХАРОВИЧ**

Роль и значение объектов и субъектов  
в энергетической безопасности

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING

OLDINI OLISH.

KRIMINOLOGIYA.

JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

106 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat  
qonunchiligida jazoni yengillashtirish instituti

12.00.09 – JINOYAT  
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,

TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA

SUD EKSPERTIZASI

122 **UMARXONOV AZIZXON  
SHARIPXONOVICH**

Sud bosqichlarida jinoyat protsessi  
ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash  
asoslari

- 131 **ABDULLAYEV DIYOR IBODILLAYEVICH**  
Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan  
shaxsga nisbatan o'rnatilishi mumkin bo'lgan  
taqiq (cheklov)larning ilmiy-nazariy jihatlari
- 

## 12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 142 **ВАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**  
Правовые инструменты защиты  
иностранных инвестиций в соответствии  
с положениями двухстороннего  
инвестиционного договора: опыт  
Республики Узбекистан
-

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.2./VQGI1427>  
UDC: 347.789(045)(575.1)

## IJTIMOYIY TARMOQLARDA MUALLIFLIK HUQUQINI HIMOYA QILISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Xo'jayev Shohjahon Akmaljon o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Intellektual mulk huquqi kafedrası mudiri,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori  
ORCID: 0000-0003-3792-8817  
e-mail: [intertoto50@gmail.com](mailto:intertoto50@gmail.com)

**Annotatsiya.** Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar aholi keng foydalanib kelayotgan asosiy platformalardan biriga aylandi. Ma'lumotlar almashinuvi tezligi oqibatida ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqining buzilishi holatlari ham uchramoqda. O'zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar, intellektual mulk sohasini rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjatlar qabul qilinishi mualliflik huquqini himoya qilish dolzarbligini ko'rsatmoqda. Tadqiqot natijasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan kontentni mualliflik huquqi obyekti sifatida tan olishning shartlari alohida belgilanmaganligi; ijtimoiy tarmoqlar orqali mualliflik huquqining buzilishi ham shaxsiy nomulkiy huquqlar, ham mulkiy huquqlarning buzilishi sifatida namoyon bo'lishi mumkinligi; mualliflik huquqini ijtimoiy tarmoqlarda himoya qilishda axborotlashtirish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish lozimligi; ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy jihatlarga e'tibor berish, jumladan, ijtimoiy tarmoq egasi (administratori) va foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi xulosalar olindi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida kontentni mualliflik huquqi obyekti sifatida baholash mezonlari ishlab chiqilib, ijtimoiy tarmoqlarda himoya qilishni so'rab murojaat qilish huquqiga ega subyektlar doirasi aniqlandi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi kelishuvini tartibga soluvchi umumiy qoidalar ishlab chiqish hamda unda mualliflik huquqiga rioya etilishi masalasini aniq belgilash lozimligi asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** asar, Internet, barchaning e'tiboriga yetkazish, texnik choralar, mualliflik prezumpsiyasi.

### ОСОБЕННОСТИ ЗАЩИТЫ АВТОРСКОГО ПРАВА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

**Хужаев Шохжахон Акмалжон угли,**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
заведующий кафедрой «Право интеллектуальной собственности»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** Сегодня социальные сети стали одной из основных платформ, широко используемых населением. Случаи нарушения авторских прав в социальных сетях также происходят из-за скорости обмена данными. Проведенные в Узбекистане конституционные реформы, принятие стратегических документов, направленных на развитие сферы интеллектуальной собственности, свидетельствуют об актуальности защиты авторских прав. В результате исследования были сделаны выводы о том, что отдельно не установлены условия признания контента, размещенного в социальных сетях, объектом авторского права

в соответствии с законодательством Республики Узбекистан; нарушение авторских прав через социальные сети может проявляться как в виде нарушения личных неимущественных прав, так и имущественных прав; необходимо совершенствование законодательства в сфере информатизации; следует обратить внимание на организационно-правовые аспекты, включая регулирование взаимоотношений между владельцем (администратором) и пользователем социальной сети при защите авторских прав в социальных сетях. По результатам этого исследования были разработаны критерии оценки контента как объекта авторского права, определен круг субъектов, имеющих право ходатайствовать о защите в социальных сетях. Кроме того, было обосновано, что необходимо разработать общие правила, регулирующие пользовательское соглашение в социальных сетях, а также четко определить в нем вопрос соблюдения авторских прав.

**Ключевые слова:** произведение, Интернет, доведение до всеобщего сведения, технические меры, презумпция авторства.

## FEATURES OF COPYRIGHT PROTECTION IN SOCIAL NETWORKS

**Khujayev Shokhjakhon Akmaljon ugli,**

Head of the Intellectual Property Law Department  
at Tashkent State University of Law, PhD in Law

**Abstract.** Today, social networks have become one of the main platforms widely used by the population. Cases of copyright infringement on social networks also occur due to the speed of data exchange. The constitutional reforms carried out in Uzbekistan and the adoption of strategic documents aimed at the development of intellectual property testify to the relevance of copyright protection. As a result of the study, it was concluded that the conditions for recognizing content posted on social networks as an object of copyright in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan are not separately established; copyright infringement through social networks can manifest itself as a violation of personal non-property rights and property rights; it is necessary to improve legislation in the field of informatization; attention should be paid to organizational and legal aspects, including the regulation of the relationship between the owner (administrator) and the user of the social network in the protection of copyright in social networks. Based on the results of this study, criteria for evaluating content as an object of copyright were developed, and a circle of subjects entitled to apply for protection in social networks was determined. In addition, it was justified that it is necessary to develop general rules governing the user agreement in social networks as well as to clearly define the issue of copyright compliance in them.

**Keywords:** work, Internet, bringing to the attention of everyone, technical measures, presumption of authorship.

### Kirish

Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning eng muhim va barcha jabhalarni qamrab oluvchi bir platformaga aylanganligi hech kimga sir emas. Deyarli har soniyada ijtimoiy tarmoqlarga ko'plab xabar va ma'lumotlar joylashtirilmoqda. Afsuski, bunday holatlarda huquqlarning buzilishi ham uchrab turibdi. Mualliflik huquqi buzilishini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

S. Dixon tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, dunyoda ijtimoiy tarmoqlardan

foydalanuvchi shaxslar soni 2022-yil yakuniga kelib qariyb to'rt milliard kishini tashkil qildi [1]. Birgina Facebook platformasida bugungi kunda uch milliardga yaqin faol foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tgan. Bu ham ijtimoiy tarmoq auditoriyasi keng ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishda mualliflik huquqiga rioya qilish muammosi kundan kunga dolzarb bo'lib bormoqda. YouTube tomonidan e'lon qilingan hisobotga ko'ra, 2022-yilning birinchi yar-



mida 755 millionta mualliflik huquqi buzilishi yuzasidan shikoyatlar kelib tushgan [2]. Mazkur ko'rsatkich shundan dalolat beradiki, YouTube platformasiga bir kunda 4,2 millionta, bir soniyada o'rtacha 48 ta video mualliflik huquqi buzilgan holda joylashtirilmoqda. Demak, ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda ham bu muhim vazifadir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 97-maqradi (Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish) doirasida ham intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni Jahon Savdo Tashkiloti bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son qarori bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasida ham mualliflik huquqlarini himoya qilish masalasi alohida qayd etilgan.

Yaqinda bo'lib o'tgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida intellektual mulkning qonuniy muhofazasi konstitutsiyaviy kafolat sifatida belgilandi (53-modda).

Yuqoridagilar ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish zamonaviy globallashtirish jarayonida muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

### **Material va metodlar**

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda umumilmiy usullar bilan bir qatorda tanqidiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik materiallarni o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

*Tanqidiy tahlil* amaldagi milliy qonunchilikda muayyan bo'shliq va nomuvofiqliklar mavjud ekanligini ko'rsatdi. Jumladan,

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-sonli Qonunida hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborotni Internetga joylashtirish qoidalari va blogerlarning majburiyatlari belgilanganligi, biroq bunday qoida va majburiyatlar mualliflik huquqiga rioya etilishi lozimligini nazarda tutmaydi. Bu holat yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi talablardan kelib chiqib, aniq huquqiy ta'sir choralari qo'llash imkoniyati yo'qligini ko'rsatmoqda.

*Qiyosiy-huquqiy tahlil* o'rganilayotgan mavzu aksariyat rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida aks etgani, unda mualliflik huquqini ijtimoiy tarmoqlarda himoya qilish qonunchilikda muayyan aks etganligini ko'rsatmoqda. Xususan, AQSh "Mualliflik huquqi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, har qanday asarni muallif va (yoki) huquq egasi ruxsatisiz qayta takrorlash, yuklab olish yoki biron-bir axborot resursiga joylashtirish no-qonuniydir. Bundan tashqari, AQShda mualliflik huquqi egasi uchinchi shaxsga qarshi sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lib, mualliflik huquqi buzilganligi fakti yuzasidan sud qarori chiqartirilishi va zararni talab qilishga haqli [3].

*Germaniyada* ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatni huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar asosida kontentni monitoring qilish bilan shug'ullanadigan maxsus idoralar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mazkur idoralar ijtimoiy tarmoqlardagi huquqbuzarliklar, shu jumladan, mualliflik huquqi bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida monitoring olib boradi [4].

*Vengriya* qonunchiligida internet-provayderlari va ijtimoiy tarmoq administratorlari huquqni muhofaza qilish organlar bilan hamkorlik qilish va yashirin ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladi. Shuningdek, ushbu mamlakatda ijtimoiy tarmoqlar omma-viy axborot vositalariga tenglashtirilmaydi va "Elektron aloqa to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi [5].

*Hindistonda* mualliflik huquqi bilan himoyalangan kontentni muallif va (yoki) huquq egasining ruxsatisiz ijtimoiy tarmoqlarga yuklash harakati jinoyat hisoblanadi [6].

Statistik materiallarni o'rganish mavzu keng qamrovli va deyarli hamma uchun muhim ekanligini ko'rsatadi. 2022-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda 31 milliondan ortiq kishi Internetdan foydalanmoqda, bu esa mamlakat aholisining 86 foizini tashkil etadi [7]. Ayniqsa, koronavirus pandemiyasi davrida Internet axborot olish va tarqatishning asosiy manbaiga aylandi. Binobarin, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish aholi orasida keng tarqalganligini inobatga olsak, mualliflik huquqini himoya qilish dolzarb huquqiy masala sifatida baholanishi lozim.

#### **Tadqiqot natijalari**

Mualliflik huquqi qamrovi keng bo'lgan intellektual mulk obyektlari qatoriga kiradi. Mualliflik huquqini himoya qilish ham an'anaviy hayotda, ham virtual hayotda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish muayyan huquqiy muammolarga yechim topish va ratsional yondashuvni taqozo etadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish masalalarini tadqiq etish asosida quyidagi natijalarga erishildi.

*Birinchidan*, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilgan kontentni mualliflik huquqi obyekti sifatida tan olishning shartlari alohida belgilanmagan. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida mualliflik huquqi obyekti uchta sohadagi asar bo'la olishi, bunday sohalar qatoriga fan, adabiyot va san'at kirishi mumkinligi qayd etilgan. Bundan tashqari, mazkur moddada muhofaza etish obyekti sifatida ifoda shakli tushunilgan. Shu sababli ham muayyan kontentni asar deb tan olish uchun quyidagi asoslar mavjud bo'lishi kerak:

- asar fan, adabiyot yoki san'at sohasiga tegishli bo'lishi lozim (misol uchun, o'quv

tusidagi audio yoki video, san'at sohasidagi fotosurat, qisqacha ilmiy maqola va sh.k.);

- obyektiv ifoda shakli elektron ko'rinish (tus)ga ega bo'lishi lozim, chunki ijtimoiy tarmoqlar Internet tarmog'idagi axborot resursi bo'lib, unda kontent matn va turli belgilar, audio yoki video yoxud surat ko'rinishida bo'lishi mumkin;

- asar ijodiy mehnat mahsuli bo'lishi lozim (ya'ni ijodiy komponent mavjud bo'lmagan kontent o'z-o'zidan, jumladan, ijtimoiy tarmoqda ham asar deb e'tirof etilmaydi);

- asar ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan bo'lishi zarur.

*Ikkinchidan*, ijtimoiy tarmoqlar orqali mualliflik huquqining buzilishi ham shaxsiy nomulkiy huquqlar, ham mulkiy huquqlar buzilishi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari buzilishi sifatida:

birovning asarini o'ziniki deb joylashtirish (bunda mualliflikka bo'lgan huquq buzilmoqda);

asar taxallus bilan oshkor etilgan bo'lsa-da, biroq ijtimoiy tarmoqqa asar muallifining haqiqiy ism-sharifini ko'rsatgan holda joylashtirish (bunda mualliflik ism-sharifiga bo'lgan huquq buzilmoqda);

asar muallif rozilgisiz birinchi bor omma e'tiboriga ijtimoiy tarmoqlar orqali joylashtirilgan bo'lsa (bunda oshkor qilishga bo'lgan huquq buzilmoqda);

muallif sha'nini toptaydigan ko'rinishda asar yoki uning nomini o'zgartirish va boshqacha talqin etish (bunda muallif obro'sini himoya qilish huquqi buzilmoqda).

Mulkiy huquqlar buzilishi sifatida "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasida ko'rsatilgan harakatlar ijtimoiy tarmoqlarda muallif rozilgisiz sodir etilgan holatlar deb tushuniladi. Misol uchun, asarni sotish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilish yoki asarning elektron nusxasini boshqa shaxslarga haq evaziga ijtimoiy tarmoqlar orqali yuborish. Yana bir misol – ijtimoiy tarmoqlarda



asarlarni muallif roziligisiz barchaning e'tiboriga yetkazish (filmni MP4 formatda Telegram tarmog'iga yuklash).

*Uchinchidan*, mualliflik huquqini ijtimoiy tarmoqlarda himoya qilishda axborotlashtirish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish lozim. Xususan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 12<sup>1</sup>-moddasida hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborotni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishda blogger rioya etishi lozim bo'lgan qoidalar kiritilgan. Unda axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan 11 ta asos keltirilgan. Biroq mazkur asoslar orasida mualliflik huquqini buzuvchi kontentni joylashtirish alohida qayd etilmagan. Qonunda qo'llangan "javobgarlikka sabab bo'ladigan o'zga harakatlar" degan jumla ham umumiy tusga ega bo'lib, tegishli javobgarlikni aniq va qat'iy belgilashga imkon bermaydi. Shu sababli ham ko'rib chiqilayotgan moddada mualliflik huquqiga rioya qilish masalasi alohida qayd etilishi lozim.

Shu bilan birga, mualliflik huquqi buzilishi tizimli ravishda qayd etilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalardan foydalanishni cheklashning huquqiy asoslarini yaratish maqsadga muvofiq.

*To'rtinchidan*, ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy jihatlarga e'tibor berish, jumladan, ijtimoiy tarmoq egasi (administratori) va foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi masalalarga urg'u berish maqsadga muvofiq:

- ijtimoiy tarmoq egasi (administratori) zimmasiga "qayta aloqa" (feedback) tizimini yo'lga qo'yish va mualliflik huquqi buzilishi yuzasidan shikoyatlarni samarali qabul qilish va hal etish tizimini yaratish lozim (bunday tajriba YouTube platformasida yaxshi yo'lga qo'yilgan);

- ijtimoiy tarmoqdan foydalanish qoidalarini nazarda tutuvchi foydalanuvchi kelishuviga nisbatan yaxlit huquqiy yondashuv-

ni yaratish, bunday kelishuvlarda mualliflik huquqiga rioya qilish bandlarini batafsil bayon qilish zarur;

- ijtimoiy tarmoqlarda Creative Common litsenziyasi imkoniyatlarini kengaytirish va qonunchilikda tegishli asoslar yaratish kerak.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash uchta asosiy tamoyilga asoslanishi lozim:

- 1) qonuniylik (ya'ni har qanday masalalar qonun bilan hal etilishi va boshqa qonunlar bilan ziddiyatlarga sabab bo'lmasligi kerak);

- 2) yetarlilik (har qanday choralar va majburiyatlar qonuniy maqsadga yetarli bo'lishi lozim);

- 3) samaradorlik (mualliflik huquqini himoya qilish pirovard maqsadda unga nisbatan hurmat hissini shakllantirishga imkon berishi kerak).

Mualliflik huquqi intellektual mulk sifatida absolyut emas. Har qanday asar ham to'liq mualliflik huquqi nuqtayi nazaridan himoya qilinmaydi. Jumladan, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi yoki ekstremizm g'oyalari yo'g'rilgan asar shaklan matn ko'rinishidagi asar deb ko'rinsa-da, mazmunan ommaviy huquq normalari bilan cheklanadi (bu kabi harakatlarni Jinoyat kodeksining 130<sup>1</sup>- va 244<sup>1</sup>-moddalarida bo'yicha jinoyat sanaladi). Gong T., Fan Z., Popovic S., Agudamu, Wang G. kabi olimlar Xitoy tajribasini ko'rib chiqishda ham ommaviy tartib ustuvorligi mualliflik huquqiga ham tatbiq etilishini aytib o'tishgan [8]. Bu kabi holatlar himoya masalasida inobatga olinishi lozim.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish natijasida olingan tadqiqot natijalari tahlili yuzasidan quyidagilarni bayon qilishimiz mumkin.

*Birinchi masala* – ijtimoiy tarmoqda mualliflik huquqi obyektini aniqlash va bunday obyektga nisbatan huquqlarni tan olish. Ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan har qanday

ma'lumot, albatta, asar bo'lib qolmaydi. Buning uchun joylashtirilgan kontent asar tushunchasi va mohiyatiga mos bo'lishi kerak.

Ijtimoiy tarmoqdagi kontent asar deb tan olinishi uchun, birinchi navbatda, ijodiy komponent bo'lishi lozim. Ijodiy komponent quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

kontentning yangiligi (qoida tariqasida ijod yangi mahsulot yaratilishini taqozo etadi);

kontentning o'ziga xosligi (ya'ni boshqa bir o'xshash kontentlardan farqlanishi va takrorlanmasligi);

kontentning asilligi (ya'ni asar birlamchi yaratilgan ko'rinishga egaligi – originalligi).

Har qanday holatda ham mualliflik huquqi paydo bo'lishi uchun, albatta, obyekt to'g'ri malakalanishi kerak. Demak, yuqoridagi talablarga mos bo'lgan kontent asar deb topilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqdagi asar fan, adabiyot yoki san'at sohasiga taalluqli bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqdagi asar axborot resursida ishlov berilishi mumkin bo'lgan elektron shaklda bo'ladi. Bu shakl yozma (post yoki maqola), audio (ovozli yozuv va xabar), video (turli videoroliklar), tasvir (rasm, fotosurat) formatida bo'lishi mumkin. Asarning qaysidir sohaga taalluqliligi yoki formatda ekanligi huquqiy himoyaga ta'sir ko'rsatmaydi.

Ayrim hollarda ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan asarlar jamlanma yoki hosila asar bo'lishi mumkin. Misol uchun, boshqa bir muallif joylagan asarni qayta ishlash orqali yangi yaratilgan kontent hosila asar (misol uchun, rus tilidagi videokontentning o'zbek tiliga tarjima qilingan versiyasi), bir nechta asarning o'ziga xos joylashuvi esa jamlanma asar (masalan, bir nechta qo'shiqning to'plami) deb tan olinadi. Mazkur hollarda jamlanma asar yoki hosila asar himoya qilinishi uchun, albatta, birlamchi muallif huquqlariga rioya etilgan bo'lishi kerak. Ya'ni hosila yoki jamlanma asar mualliflari qayta ishlangan yoki jamlanmaga asos bo'lgan asarlarning mualliflari (huquq egalaridan)dan rozilik ol-

gan bo'lishlari lozim. Aks holda, hosila yoki jamlanma asar himoya qilinmaydi.

Aytish joizki, mualliflik huquqi vujudga kelishi uchun biron-bir rasmiyatchilik talab etilmaydi, demak, asar birinchi bor ijtimoiy tarmoqda yaratilganligi yoki yaratilgan asar ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilganligi himoyaga umumiy jihatdan ta'sir ko'rsatmaydi.

*Ikkinchi masala* – mualliflik huquqi buzilishi holatlarini aniq belgilash. Mualliflik huquqini himoya qilish uchun sodir etilgan huquqbuzarlikni aniqlash va unga to'g'ri baho berish lozim.

Mualliflik huquqida ikki tabiatga ega bo'lgan huquqlar mavjud – shaxsiy nomulkiy huquqlar va mulkiy huquqlar.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallif shaxsiga tegishli bo'lib, boshqa shaxslarga o'tkazilmaydi va muddat bilan cheklanmaydi. Bunday huquqlarning buzilishi deganda, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasida nazarda tutilgan huquqlar buzilishi tushunilishi lozim. Bu huquqlarni himoya qilish nafaqat muallif, balki uning merosxo'rlari, agar merosxo'rlar bo'lmasa, vakolatli davlat organi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi) tomonidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari buzilishi mualliflikni o'zlashtirish, muallif roziligisiz uni ijtimoiy tarmoqqa joylashtirish va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Mualliflikni o'zlashtirishda foydalanuvchi o'zini ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan asar muallifi sifatida ko'rsatadi. Aytish joizki, bu kabi harakat mazmunan Jinoyat kodeksining 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini tashkil etadi. Xuddi shuningdek, asarni oshkor qilish faqat muallif roziligi bilan amalga oshirilishini inobatga olib, noqonuniy oshkor qilish ham mazkur modda bo'yicha jinoyat javobgarlikka sabab bo'ladi. Biroq har qanday holatda ham muallifga yetkazilgan moddiy zarar yoki ma'naviy ziyon qoplanishi lozim.

Ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan asar qonuniy tusga ega bo'lishi uchun asar muallif yoki uning roziligi bilan boshqa shaxs tomonidan joylashtirilgan bo'lishi kerak. Aynan mazkur holatda muallifning mulkiy huquqlari vujudga keladi.

Mulkiy huquqlar "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasida nazarda tutilib, muddatli tusga ega va boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin. Binobarin, bunday holatda huquqiy himoya aynan mulkiy huquqlarga ayni vaqtda ega bo'lgan shaxs tomonidan hamda muhofaza muddati davomida amalga oshirilishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 1046-moddasiga muvofiq, asar muallifi faqat jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Huquq egasi sifatida ham jismoniy, ham yuridik shaxslar namoyon bo'ladi.

Mulkiy huquqlarning buzilishi turli tabiatga ega bo'lishi mumkin. Misol uchun, oshkor etilgan asarni muallif ruxsatisiz ijtimoiy tarmoqqa joylashtirishning o'zi barchaning e'tiboriga yetkazish huquqining buzilishi deb tan olinadi. Demak, muallif ruxsatisiz asarni ijtimoiy tarmoqqa joylashtirish huquqbuzarlikni qayd etish uchun yetarli.

Bundan tashqari, mulkiy huquqlarni buzish asarni takrorlash yoki qayta ishlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Har qanday holatda ham muallif roziligi va u bilan shartnoma tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Shartnoma muallif (huquq egasi) yoki mulkiy huquqlarini boshqaruvchi tashkilot bilan tuziladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilishda mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning o'rne ortib bormoqda. Xususan, milliy huquqshunoslik fanida ham bu masala tadqiq etilmoqda. Xususan, A. Yuldashov telekommunikatsiya tarmoqlarida bunday tashkilotlar tomonidan o'rganishlar olib borish samarali ekanligini ta'kidlaydi [9, 186-b.]. I. Yakubova tomonidan esa tashkilotlar faoliyatiga sun'iy intel-

lekt texnologiyalarini joriy qilish masalalari o'rganilmoqda [10, 20-b.].

Mulkiy huquqlarni buzish ma'muriy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177<sup>1</sup>-moddasida mualliflik huquqini buzish uchun javobgarlik belgilangan. Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudining 2021-yil 20-sentabrdagi qaroriga muvofiq, huquqbuzar S.D. tomonidan qo'shiqni muallif rozilgisiz ijro etish va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish ma'muriy huquqbuzarlik deb topilgan [11]. Biroq bunday harakatlarni ma'muriy deb tan olish uchun harakatlar qasddan sodir etilishi kerak. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati kassatsiya instansiyasi tomonidan 2022-yil 31-avgustda ko'rilgan ishda "O'zbekiston Respublikasi MJTKning 177<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlik faqat qasddan sodir etilishi mumkin"ligi alohida ta'kidlangan [12].

Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish masalasini hal etishda "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga binoan, asarlardan muallif ism-sharifini ko'rsatgan holda erkin foydalanish mumkinligi e'tiborga olinishi lozim. Xususan, oshkor qilingan asarlardan ijtimoiy tarmoqlarda ilmiy, tadqiqiy, munozarali, tanqidiy maqsadlarda ko'zlangan maqsadga mos hajmda iqtibos olish mumkin.

*Uchinchi masala* – ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish maqsadida kontentdan foydalanishni cheklashning mezonlarini aniq belgilash. Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqlariga rioya etish lozimligi qonunchilikda aniq va ravshan belgilanishi zarur. E'tiborli jihati shundaki, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 12<sup>1</sup>-moddasida rioya etilishi lozim bo'lgan 11 ta asos keltirilgan bo'lib, mualliflik huquqiga rioya qilish talabi ular orasida yo'q. Mazkur moddada umumiy asos "qonunga muvofiq jinoiy va boshqa javobgarlikka sabab bo'ladigan o'zga

*harakatlarni sodir etish maqsadlarida foydalanilishiga yo'l qo'ymasligi shart*"ligi keltirilgan, biroq bu holat qonunchilikni sharhlash va uni qo'llashda muammo keltirib chiqaradi. Ushbu talablarni bajarmaslik maxsus vakolatli davlat organi tomonidan foydalanishni cheklash tarzidagi texnik-huquqiy chora qo'llashga asos bo'ladi. Mualliflik huquqi buzilishi qayd etilgan axborot resursidan foydalanishni cheklash maqsadida ko'rib chiqilayotgan qonunga *"mualliflik huquqiga rioya etilishi"* shartini kiritish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy tarmoqlar, avvalambor, axborot resursi, ya'ni axborot izlash, olish va tarqatish manbasi sanaladi. Binobarin, ijtimoiy tarmoqlardagi kontentni cheklash masalasini tartibga solishda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 33-moddasi talablariga rioya qilish lozim. Mazkur moddada axborot erkinligi bilan bog'liq huquqlarni cheklash qonunga muvofiq, tegishli maqsadlarda va zarur doirada amalga oshirilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Demak, mualliflik huquqi masalasi ham mazkur maqsadlarga mos yoki mos emasligini tekshirish zarur. Fikrimizcha, mualliflik huquqini himoya qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan axborotdan foydalanishni cheklash quyidagilarga asosan, Konstitutsiyaning 33-moddasiga muvofiq keladi:

mualliflik huquqi Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq himoya qilinadi, demak, bunday himoya qonuniy asosga ega;

33-moddada ko'rsatilgan maqsadlardan biri "boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish" sanaladi, binobarin, mualliflik huquqi inson huquqlaridan biri sanaladi;

mualliflik huquqini buzish alomatlari mavjud bo'lgan kontentni cheklash muallifning huquqlarini tan olishning muhim sharti bo'lib, huquq buzilishi davom etishining oldini oladi, shu sababli bu chora zarur bo'lgan doira deb e'tirof etilishi mumkin.

**To'rtinchi masala – foydalanuvchi kelishuvini tartibga solish.** Ko'plab ijtimoiy tarmoqlar o'z platformalarida tarmoqdan foyda-

lanish shartlarini keltirib o'tadilar. Ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, mualliflik huquqiga rioya qilish, qoida tariqasida, kontent joylashtirgan shaxslarning majburiyati sanaladi. Xususan, Facebook (Meta) foydalanuvchi kelishuvida tarmoqdan kimningdir mualliflik huquqini buzish yoki kontrafakt nusxalarni tarqatish maqsadida foydalanish mumkin emasligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, kelishuvda kontent joylashtirgan shaxs, aksi isbotlanmaguncha, kontent muallifi sifatida e'tirof etilishi nazarda tutilgan [13].

Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqi bilan himoyalangan obyektlardan foydalanishda Creative Commons litsenziyalarining o'rni beqiyos. AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bu turdagi litsenziyalar keng qo'llanib kelinmoqda. Creative Commons litsenziyalari asarlardan foydalanish shartlarini tavsiflovchi umumlashtirilgan shartnomalarning guruhi sanaladi. Mazkur shartnomalarda sodda tilda mualliflik huquqiga rioya qilishning umumiy shartlari mavjud [14]. Shartnomalar matni oddiy va hamma uchun ma'qul shartlarni o'z ichiga olganligi sababli ko'plab ijtimoiy tarmoq platformalari ulardan foydalanib kelmoqda.

Foydalanuvchi kelishuvi haqida tadqiqot olib borayotgan ayrim olimlar fikri shuni ko'rsatmoqdaki, bu turdagi kelishuvlar asosan ijtimoiy tarmoq egalari (administratorlari) manfaatida tuziladi. Jumladan, J.P. Quintais, G.De Gregorio, J.C. Magalhães o'z tadqiqotlarida onlayn platformalarda mualliflik huquqini himoya qilish shartnomaviy-huquqiy tarzda tartibga solinishi, bunda foydalanuvchilarning zimmasiga javobgarlikni to'liq yuklash maqsadga muvofiq emasligini aytishgan [15]. Darhaqiqat, foydalanuvchi kelishuvi har ikki taraf manfaatlarini ko'zlab tuzilgan bo'lishi lozim. Afssuski, bugungi kunda bunday kelishuvlarga nisbatan yaxlit yondashuv mavjud emas. Fikrimizcha, mualliflik huquqini himoya qilish nuqtayi nazaridan quyidagi asosiy jihatlar foydalanuvchi kelishuvida aks etishi zarur:



1) ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqi buzilishi holati aniqlanganda, muallif (huquq egasi) yoki vakolatli davlat organi tomonidan tegishli shikoyatlarni yuborish, ushbu shikoyatlarni qabul qilish va ular bo'yicha ta'sir choralarni qo'llashning shaffof tizimini yo'lga qo'yish lozim;

2) foydalanuvchi kelishuvida mualliflik huquqini himoya qilish qoidalari xalqaro hujjatlar asosida hamda mualliflik huquqlarini himoya qilish so'raladigan mamlakat huquqi qo'llanishi ko'rsatilishi lozim (Fuqarolik kodeksining 1180-moddasida intellektual mulkka bo'lgan huquqlarga nisbatan bu huquqlarni himoya qilish so'raladigan mamlakat huquqi qo'llanilishi aniq belgilangan), bu kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni samarali hal etishga imkon beradi.

Yana bir muhim masala – Creative Commons litsenziyalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishdir. Afsuski, milliy qonunchilikda Creative Commons litsenziyalarini qo'llash nazarda tutilmagan. Sanoat mulkiga nisbatan o'xshash shartnoma mavjud (ochiq litsenziya). Unga ko'ra, patent egasi sanoat mulki obyektidan foydalanish huquqini har qanday shaxsga berish to'g'risida (ochiq litsenziya) vakolatli davlat organiga ariza topshirishi, bunda ochiq litsenziyani olish istagini bildirgan shaxs patent egasi bilan nomutlaq litsenziya shartnomasi tuzishi nazarda tutilgan. Fikrimizcha, bunday turdagi shartnomalarni milliy qonunchilikda nazarda tutish maqsadga muvofiq.

### **Xulosalar**

Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish masalasi bugungi kunda muhim va muhokamalarga sabab bo'ladigan masalalardan biri sanaladi. Mazkur maqolada amalga oshirilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilishda kontentning mualliflik huquqi objekti ekanligini aniqlash muhim sanaladi. Tadqiqot natijasida kontent quyida-

gi talablarga javob bersa, mualliflik huquqi objekti sifatida tan olinishi mumkinligi to'g'risida xulosaga kelindi:

- kontent obyektiv shaklga ega bo'lishi kerak (qoida tariqasida obyektiv shakl elektron ko'rinishda hamda matn, belgi, audio, video, tasvir formatida bo'lishi mumkin);

- kontent fan, adabiyot yoki san'at sohasidagi ijodiy mehnat mahsuli sifatida yangilik, o'ziga xoslik va asillik talablariga javob berishi lozim;

- agar kontent jamlanma yoki hosila asar bo'ladigan bo'lsa, birlamchi muallif huquqlariga rioya etilishi va undan rozilik olinishi shart.

2. Ijtimoiy tarmoqlarda himoya qilishni so'rab, muallif, huquq egasi, mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruvchi tashkilot yoki vakolatli davlat organi murojaat qilishi mumkin.

3. Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqining buzilishi shaxsiy nomulkiy huquqlar yoki mulkiy huquqlar buzilishi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shaxsiy nomulkiy huquqlar buzilishi qonunchilikda belgilangan hollarda jinoiy javobgarlikka, mulkiy huquqlar buzilishi – ma'muriy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Har qanday holda ham muallifga yetkazilgan moddiy zarar yoki ma'naviy ziyon qoplanishi masalasi ham ko'rib chiqilishi lozim.

4. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari, xususan, sahifa egasi yoki bloggerlarning majburiyatini qonunchilikda aniq belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunining 12<sup>1</sup>-moddasiga quyidagi tahrirdagi xatboshini kiritish taklif etiladi:

*"intellektual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy nomulkiy yoki mutlaq huquqlarni buzadigan harakatlarni sodir etish".*

Bu axborot resursi egasi, blogger va hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborotni joylashtiruvchi shaxslarning mualliflik huquqiga rioya etishini ta'minlashga imkon beradi.

5. Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish maqsadida mualliflik huquqini buzadigan veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar yoki ularning sahifalaridan foydalanishni cheklashning huquqiy asoslarini yaratish. Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasi talablari (inson huquqlarini cheklash faqat sud qarori bilan amalga oshiriladi)dan kelib chiqib, bunday harakatlar sudning qarori asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, sud qarori ijrosini ta'minlash maqsadida ijtimoiy tarmoq egalari (administratrlari) bilan o'zaro hamkorlik to'g'risida kelishuvlar imzolash zarur.

6. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi kelishuvini tartibga soluvchi umumiy qoidalar ishlab chiqish hamda unda mualliflik huquqiga rioya etilishi masalasini aniq belgilash lozim.

7. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuniga Creative Commons litsenziyalari kabi namunaviy ochiq litsenziyalar berish

tartibini joriy etish maqsadga muvofiq. Shu sababli mazkur qonunga quyidagi tahrirdagi 42<sup>1</sup>-moddani kiritish taklif etiladi:

*"Muallif yoki huquq egasi yoxud mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruvchi tashkilot O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga asardan foydalanish huquqini har qanday shaxsga berish to'g'risida (ochiq mualliflik shartnomasi) ariza topshirishi mumkin.*

*Ochiq mualliflik shartnomasini tuzish istagini bildirgan shaxs muallif yoki huquq egasi yoxud mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruvchi tashkilot bilan mutlaq bo'lmagan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risida shartnoma tuzishi shart. Bunday shartnomalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib tuzilishi mumkin.*

*Shartnoma shartlari bo'yicha nizolar sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Muallif yoki huquq egasi yoxud mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruvchi tashkilotning ochiq mualliflik shartnomasiga nisbatan huquq berish haqidagi arizasi chaqirib olinmaydi".*

## REFERENCES

1. Dixon S. Global social networks ranked by number of users 2023. Available at: <https://www.statista.com/statistics/272014/global-social-networks-ranked-by-number-of-users/> (accessed 17.06.2023).
2. Ceci L. Status of automatically detected copyright claims to YouTube H1 2022. Available at: <https://www.statista.com/statistics/1281165/automatic-copyright-claims-youtube-by-status/> (accessed 17.06.2023).
3. Digital Millennium Copyright Act. Available at: <https://www.congress.gov/bill/105th-congress/house-bill/2281/text/> (accessed 17.06.2023).
4. Telekommunikation-Telemedien-Datenschutz-Gesetz [Telecommunication Telemedia Data Protection Act]. Available at: <https://gesetz-ttdsg.de/> (accessed 17.06.2023).
5. Media authority: centralised structure and regulatory scope. Available at: [http://medialaws.ceu.hu/media\\_authority\\_centralised\\_more.html/](http://medialaws.ceu.hu/media_authority_centralised_more.html/) (accessed 17.06.2023).
6. Renee H.C. Copyright issues for social media. Available at: <https://www.legalzoom.com/articles/copyright-issues-for-social-media/> (accessed 17.06.2023).
7. 2022-yil 14-dekabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo'lib o'tgan "Hukumat soati"da Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.Shermatovning hisoboti. Available at: <https://mitc.uz/uz/news/view/4248/> (accessed 17.06.2023).



8. Gong T., Fan Z., Popovic S., Agudamu, Wang G. Copyright protection of live esports broadcast under China's new Copyright Law. *Technology in Society*, 2022, vol. 71. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0160791X22002640/> (accessed 17.06.2023).

9. Yuldashov A., Usmonov V. Copyright Protection in Uzbekistan by the Collective Management Organizations. *Miasto Przyszłości – City of Tomorrow*, 2022, vol. 25, pp. 185–188.

10. Yakubova I. Mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish faoliyatining sun'iy intellekt bilan bog'liq muammolari: xorijiy mamlakatlar tajribasi [Problems of collective management of copyrights related to artificial intelligence: experience of foreign countries]. *Lawyer Herald*, 2023, vol. 3, no. 1, pp. 18–26.

11. Jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudining 2021-yil 20-sentabrdagi 3-2101-2102/3044-sonli ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qarori [The decision of the Navoi City Court on criminal cases on September 20, 2021 regarding the administrative offense case No. 3-2101-2102/3044].

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlar bo'yicha sudlov hay'ati kassatsiya instansiyasining 2022-yil 31-avgustdagi 3-1304-2101/1103-sonli kassatsiya ishi yuzasidan ajrimi [Ruling of the cassation instance of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan regarding cassation case No. 3-1304-2101/1103 of August 31, 2022].

13. Facebook User's agreement. Available at: <https://www.facebook.com/legal/terms/> (accessed 17.06.2023).

14. About CC Licenses. Available at: <https://creativecommons.org/about/cclicenses/> (accessed 17.06.2023).

15. Quintais J.P., De Gregorio G., Magalhães J.C. How platforms govern users' copyright-protected content: Exploring the power of private ordering and its implications. *Computer Law & Security Review*, 2023, vol. 48. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0267364923000031/> (accessed 17.06.2023).

**YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI**  
**ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК**  
**REVIEW OF LAW SCIENCES**

**Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal**

**Правовой научно-практический журнал**

**Legal scientific-practical journal**

**2023-yil 2-son**

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,  
professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,  
dotsent

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,  
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 26.06.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 17,7 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 36.

TDYU tipografiyasida chop etildi.